Koronavirus infeksiyasiga qarshi birgalikda, hamjihatlikda kurashamiz!

Bugungi kunda mamlakatimizda koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish maqsadida izchil ravishda amaliy ishlar olib borilmoqda va zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Aholini kundalik oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida viloyatimizning shahar va tumanlarida, mahallalarda ko'chma savdo yarmarkalari tashkil etilmoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlari singari qadimiy Xiva shahrida ham koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash tadbirlari izchil ravishda o'tkazilmoqda. Ayniqsa, har bir fuqaroning o'z uyida qolib, karantin kunlarida belgilangan qoidalarga qat'iy rioya qilishlari shartligi, o'zining, yaqinlarining sog'ligini muhofaza qilishi muhimligi haqida fuqarolarga tushuntirilmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 3 aprelida qabul qilgan "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish davrida aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko'rsatishining barqarorligini ta'minlash, shuningdek, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriladigan vazifalar aniq ko'rsatib berilgan. Ayni kunda mazkur Farmon ijrosi izchil ravishda ta'minlanmoqda.

Davlatimiz rahbarining ushbu Murojaatida "…turistik va mehmonxona faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar shu yil yakuniga qadar yer va mol-mulk soliqlarini to'lashdan ozod etiladi. Ularga ijtimoiy soliq stavkasi hozirgi 12 foizdan 1 foizga tushiriladi. Ushbu imtiyozdan sohada xizmat ko'rsatayotgan mingdan ortiq subyektlar foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi", deya alohida qayd etildi. Bu esa Xiva shahrida faoliyat yuritadigan 50 dan ortiq oilaviy va 22 dan ziyod jahon talablariga javob beradigan mehmonxonalar egalarini ham quvontirmoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda turizm, sayyohlik har tomonlama rivojlanmoqda. Masalan, turizm eksporti Xiva shahrida 2019-yilda 2018-yilga nisbatan – 4 mlrd. so'mdan 14 mlrd. so'mga oshgan edi. Kelgusida ham turizm sohasi bilan shug'ullanishni ko'plab tadbirkorlar rejalashtirmoqdalar.

Prezidentimizning mazkur Farmonida ushbu sohaga qaratilgan alohida e'tibor tadbirkorlarni kelgusida istiqbolli loyihalar asosida faoliyat yuritishga ruhlantirmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda talabalar, o'quvchi-yoshlar uyda qolib, Onlayn darslarni qunt bilan o'zlashtirmoqdalar. Kitob o'qimoqdalar. Badantarbiya va jismoniy mashqlarni bajarmoqdalar. Ota-onalar ham foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanib, farzandlariga kitoblar o'qib bermoqdalar.

Azaldan Xiva usta hunarmandlar, chevarlarning maskani bo'lib kelgan. Ayni paytda momolar va bobolar farzandlari, nabiralariga ushbu kasb-hunarlarni ham o'rgatib, milliy an'ana va urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz haqida gapirib bermoqdalar.

Biz - buyuk yurt farzandlarimiz. Ushbu sinovli kunlarni ham hamjihatlikda, mardanovor yengamiz va kelgusida yanada ulkan yutuqlarni qo'lga kiritamiz. Hamjihatlikda koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashamiz.

Aziz yurtdoshlar! Shunday ekan, uyda qolib, shifokorlar, mutaxassislar tavsiyalariga amal qilaylik va sinovli kunlarni birdamlikda yengib o'taylik!

Gavharjon Durdiyeva,
Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy xodimi,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi.